

**POWER POINT DASTURIDA ANIMATSIYALARNI YARATISH VA
ULAR BILAN ISHLASH TEXNOLOGIYASI****Turayeva Sabrina Kamoliddin qizi**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Biologiya yo'nalishi 2_23 guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14620797>

Annotatsiya : Ushbu maqola barcha yoshdagi insonlarga manzur keladi degan umiddamiz. Ushbu maqolada Power Pointda animatsiyalarni yaratish va ular bilan ishlash bo'yicha bilim va ko'nikmalarimizni mana shu maqola orqali ulashmoqchimiz. O'ylaymizki bizni ma'lumotlarimiz sizlar uchun ham ma'qul keladi degan umiddamiz

Kalit so'zlar: Microsoft Word, Power Point, Excel, Adobe Photoshop, Animatsiya, slaydlar, video-klip, reklama, kompyuter, taqdimot, e'lon, teleradiokanal, grafik axborot, ovoz, maxsus effektlar to'plami, tarqatma material, ma'ruza rejasi, seminarlar, konferensiyalar, bitiruv ishlari

Аннотация: Мы надеемся, что данная статья будет интересна людям всех возрастов. В этой статье мы хотим поделиться своими знаниями и навыками по созданию анимаций в Power Point и работе с ними. Надеемся, что наша информация будет Вам полезна

Ключевые слова: Microsoft Word, Power Point, Excel, Adobe Photoshop, Анимация, слайды, видеоролик, реклама, компьютер, презентация, анонс, телерадиоканал, графическая информация, звук, пакет спецэффектов, раздаточный материал, план лекций, семинары, конференции, дипломные работы.

Abstract: We hope that this article will be useful to people of all ages. In this article, we want to share our knowledge and skills on creating and working with animations in Power Point. We hope that our information will be useful to you too.

Keywords: Microsoft Word, Power Point, Excel, Adobe Photoshop, Animation, slides, video clip, advertising, computer, presentation, announcement, television and radio channel, graphic information, sound, special effects package, handout, lecture plan, seminars, conferences, graduation works

Faraz qiling, Siz odamlar bilan to'la majlislar zalidasiz. Shu yerdan turib o'zingizning yangi fikrlaringizni bo'lg'usi mijozlaringizga etkazish uchun imkoniyat paydo bo'ldi. Ushbu imkoniyatni amalga oshirishda MS Power Point yordamga keladi. Bu dastur har xil video-klip va animatsiyalardan foydalanib



POLAND



POLAND

taqdimot yaratish orqali, o'z fikringizni tushunarli qilib yetkazib berish imkoniyatini beradi.

Shu bilan bir qatorda, bugungi kunda reklamalarga juda keng e'tibor berilmoqda. Reklamalarning har xil ko'rinishlari: sahifalar, e'lonlar, tele- va radio reklamalar sizga ma'lum. Bugungi kunda kompyuter - reklamalarini yaratish va tarqatish bo'yicha eng kuchli vositaga aylandi. Reklama namoyishini yaratish bu ko'p vaqtni talab qiladigan, juda muhim va ma'suliyatli jarayondir. Bu o'rinda sizdan talab qilinadigan rasmlar, animatsiya (harakat), qisqa matnlardan iborat senariyni o'ylab topishdir. Namoyish(prezentatsiya)lar va slayd-filmlar tayyorlashda eng effektiv va universal vositalardan biri - bu Microsoft Office ilovasidagi - MS Power Point dasturidir. U grafik axborotlar, slaydlar, ovoz, video kliplar, animatsiyalardan foydalanib, sizga sifatli namoyishlar yaratish imkonini beradi.

Zamonaviy kompyuter va proektorlardan foydalangan holda seminarlar, konferensiyalar, bitiruv ishlari himoyalari hamda o'quv jarayonida namoyishlardan foydalanish oddiy holga aylandi. Namoyish - bu MS Power Point yordamida yaratilgan, bitta faylda saqlanuvchi va ularni ko'rsatish ekranda amalga oshiriladigan slaydlar va maxsus effektlar to'plamdan iborat bo'lib, tarqatma material, ma'ruza rejasi yoki konspekt shaklida bo'lishi ham mumkin. Slayd esa namoyishning aloxida sahifasi (kadri) bo'lib, unda sarlavha, matn, grafik, diagramma va boshqa ma'lumotlar joylashgan bo'lishi mumkin. MS Power Point yordamida yaratilgan slaydlarni printer yordamida chop etish yoki maxsus agentliklarda 35-millimetrli fotoplyonkalarga o'tkazib olish mumkin.

Animatsiya - bu slaydlarni namoyish qilish va ko'rsatishda ularni samaradorligini oshiruvchi tovush, rang, matn va harakatlanuvchi effektlar va ularni yig'indisidan iborat.

Tarqatma material deb namoyish slaydlarini bitta sahifaga ikki, to'rt yoki oltitadan qilib chop etib anjuman qatnashchilarga tarqatish uchun tayyorlangan materialga aytiladi.

Slaydlarga MS Power Point 2010da mavjud bo'lgan ma'ruza mavzusiga mos fon tasviri uchun mo'ljallangan Dizayn mavzusi yoki ranglar jilosi o'rnatish orqali taqdimotni boytish mumkin.

Yaratilgan taqdimotni MS Power Point 2010 va undan avvalgi laxjalarida ochish va tahrirlash imkonini beruvchi - .pptx (.ppt), MS Power Point 2010 dasturisiz ishlay oladigan Demonstratsiya Power Point - .ppsx (.pps), chop etilgan hujjat shaklida - .pdf, shuningdek har bir sahifasini rasm shaklida - .jpeg,





.gif va .tiff hamda video fayl shaklida - .WMV formatlarida saqlash imkonini beradi.

2. MS Power Point 2010 oynasi bilan tanishish. MS Power Point 2010 oynasi ko'rinishi oddiy va sodda bo'lib, unda professional darajadagi taqdimotlar yaratishga kerak bo'ladigan barcha vosita(instrument)lar jamlangan. Uning tasma(lenta)sida to'qqiz guruhga bo'lingan vkladkalar mavjud bo'lib, ularda:

Fayl - fayl yaratish, ochish, saqlash, chop etish, ma'lumot olish

Glavnaya - slaydlar, almashishlar buferi, shriftlar, abzatslar, chizmalar, qidirish va almashtirish

Vstavka - slaydga jadval, tasvir, illyustratsiya, gipermurojaat, matn, belgi va multimediyalar joylash

Dizayn - slayd sahifasi parametrlari, mavzulari va fonini tanlash

Perexodi - bir slayddan boshqasiga o'tish, slaydni ko'rsatish vaqti va tovush o'rnatish hamda tanlanganlarni ijro etib ko'rish

Animatsiya - slayd o'byektlariga harakat, qo'shimcha harakat, slaydni ko'rsatish vaqtini o'rnatish hamda tanlanganlarni ijro etib ko'rish

Pokaz slaydov - taqdimotni boshidan yoki kelgan joyidan namoyish qilish va ularni sozlash

Retsenzirovanie - to'g'ri yozilganligini tekshirish, mtn yozilgan tilni o'zgartirish va izohlar o'rnatish

Vid - taqdimotni ko'rish rejimini o'zgartirish, bir nechta oynalar bilan ishlash va boshqa amallarni bajarish buyruqlari jamlangan. MS Power Point oynasining ish sohasida yangi taqdimot yaratish uchun odatiy qabul qilingan slaydning maketi bilan birga slaydga eslatmalar joylashtirish (zametki kslaydu) darchasi, tasma(sida) Glavnaya deb atalgan vkladkaga o'rnatilgan vosita(instrument)lar panellari nomlari va elementlari, quyi o'ng tarafida slaydlar bilan ishlash rejimlari va slayd masshtabi, chap tarafida barcha yaratilgan slaydlarning kichraytirilgan shakli ko'rinib turadi.

MS Power Point 2010 oynasidagi Fayl vkladkasini tanlash orqali, yaratgan taqdimotingiz faylini boshqaruv elementlari yordamida namoyish uchun tayyorlashingiz mumkin. Bundan tashqari taqdimotdan foydalanishi imkoniyatini cheklash va uni himoyalashni amalga oshirish mumkin. Agar taqdimotga multimediya, ya'ni audio- va video- fayllari O'rnatilgan bo'lsa, u holda ularni zichlashtirgan holda saqlash orqali disk hotirasini tejash imkoniyatidan foydalanish mumkin.



POLAND



POLAND

Yangi taqdimot yaratish va uni saqlash, boshqa taqdimotni ochish, tarqatma materiallar tayyorlash va slaydlarni chop etish kabi amallar ham Fayl vkladkasi yordamida bajariladi

PowerPointda animatsiyalarni yaratish va ular bilan ishlash uchun bir nechta oddiy qadamlar mavjud. Quyida PowerPointdagi animatsiyalarni yaratish va ulardan qanday foydalanishni o'rgataman:

1. Animatsiya qo'shish

Slaydni tanlash: PowerPointdagi slaydni tanlang, unga animatsiya qo'shmoqchi bo'lsangiz.

Obyektni tanlash: Animatsiya qo'shmoqchi bo'lgan obyekt (matn, rasm, shakl, video va boshqalar) tanlang.

Animatsiyalar paneli: "Animatsiyalar" tabini oching. Bu yerda turli animatsiya effektlari mavjud.

Animatsiya effektini tanlash: Animatsiyalar ro'yxatidan kerakli effekt (Fly In, Fade, Wipe va boshqalar) tanlang.

2. Animatsiya parametrlarini sozlash

Animatsiya effektini sozlash: Tanlangan animatsiya uchun qo'shimcha sozlamalar mavjud. Misol uchun, animatsiyaning boshlanish vaqti, tezligi, davomiyligi va boshqalar.

Start (Boshlash): Animatsiya qachon boshlanishini belgilash mumkin:

On Click (Klik bilan)

With Previous (Oldingi animatsiya bilan birgalikda)

After Previous (Oldingi animatsiyadan keyin)

Duration (Davomiylilik): Animatsiyaning davomiyligini sozlash uchun bu parametрни o'zgartiring.

Delay (Kechikish): Animatsiya boshlanishidan oldin kutish vaqti.

3. Animatsiyalarni tartibga solish

Animation Pane: "Animatsiyalar" panelidan "Animation Pane"ni ochish orqali barcha animatsiyalarni ko'rish va ularni tartibga solish mumkin. Bu erda animatsiyalarni ko'rsatilgan tartibda o'zgartirish, qo'shish yoki o'chirish mumkin.

Tartibni o'zgartirish: Animatsiyalarni yuqoriga yoki pastga siljitib, tartibini o'zgartiring.

4. Bir nechta obyektlarni animatsiya qilish

Agar bir nechta obyekt (matn, rasm, shakl, video va boshqalar) animatsiya qilishni xohlasangiz, barcha obyektlarni tanlab, bir vaqtning o'zida animatsiyalarni qo'shishingiz mumkin. Har bir obyektga alohida animatsiyalarni o'rnatish mumkin.



5. Animatsiyani ko'rish va sinab ko'rish

Preview: Animatsiya qo'shilganidan so'ng, uni ko'rish uchun "Preview" tugmasini bosing.

Agar kerak bo'lsa, animatsiyani tahrirlash va sozlashni davom ettiring.

6. Kengaytirilgan animatsiya effektlari

Motion Paths (Harakat yo'llari): Obyektni ekranda harakatlantirish uchun "Motion Paths" animatsiyasini tanlashingiz mumkin. Bu yordamida obyektni belgilangan yo'nalishda harakatlantirishingiz mumkin.

Trigger (Tetiklash): Animatsiyani faollashtirish uchun trigger (tetik) qo'shish mumkin. Masalan, ma'lum bir obyektni bosganingizda animatsiya boshlanishi mumkin.

PowerPointda animatsiyalarni yaratish va ular bilan ishlash juda qulay va dinamik taqdimotlarni yaratishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Berdiyeva, Gulnoza, and Avazbek Narzulloyev. "VIRTUAL BORLIQ VA UNING TURLI SOHALARDA QO'LLANILISHI." Solution of social problems in management and economy 3.4 (2024): 18-23
2. Berdieva, Gulnoza. "The Role, Importance And Relevance Of Information Technology In The Motivational Phase Of Teaching." The American Journal of Applied sciences 3.04 (2021): 334-338.
3. Berdiyeva, G. "INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI OQITISHDA MASOFAVIY TALIM TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI." Экономика и социум 12-1 (91) (2021): 146-150.
4. Berdieva, Gulnoza, and Named after Nizami. "The importance of students' use of information technology in computer science." (2021).
5. Бердиева, Гулноза. "Электрон таълимни ташкил этиш ва ахборот тизимлари таҳлили" Муғаллим ҳам узликсиз билимлендириу Илмиу-методикалик журнал 3.3(2022):121-123
6. Berdiyeva, Gulnoza. "TA'LIMDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH." THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH Turkey International scientific-online conference 4.1(2022): 150-152.
7. Jurayev, Suhrobjon. "GENERAL ISSUES OF IMAGE PROCESSING AND ANALYSIS AND CAPABILITIES OF WEB PROGRAMMING LANGUAGES." Академические исследования в современной науке 3.4 (2024): 97-108.
8. Jurayev, Suhrobjon. "TASVIRLARGA ISHLOV BERISH VA TAHLIL ETISHNING UMUMIY MASALALARI VA WEB DASTURLASH TILLARINING IMKONIYATLARI." Инновационные исследования в современном мире: теория и практика 3.1 (2024): 113-122.



9. Saloxiddin o'g'li, Jurayev Suxrob, and Botirov Odilbek Xayrullo o'g'li. "MODERN SERVER TECHNOLOGIES." НАУЧНЫЕ ДОСТИЖЕНИЯ И ОТКРЫТИЯ 2019: сборник статей X (2019): 53.
10. Sherovna, A. M. "Education of preschool children in the family on the basis of national values. Finland International Scientific Journal of Education." Social Science & Humanities 11.4 (2023): 624-627.
11. Alikulova, M. "Raising preschool children through modeled values." Science and innovation 2.B5 (2023): 304-307.
12. Sherovna, Muxayyo Alikulova. "IMPROVING THE SYSTEM OF MODELING EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN ON THE BASIS OF NATIONAL VALUES IN THE FAMILY." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.3 (2022): 549-552.
13. MUSURMON, IMOMOV, et al. "The Importance Of Interactive Methods And Logical Games In Preparing Students For Professional Pedagogical Activities." Journal of Positive School Psychology 6.11 (2022): 1293-1296.
14. Alikulova, M. "ASPECTS OF DEVELOPING STUDENTS' BASIC KNOWLEDGE OF THE FAMILY." Science and innovation 2.B9 (2023): 255-257.
15. Alikulova, Muhayyo. "Preparation of preschool children to work with the model." Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities 12.4 (2022): 41-44.
16. Sherovna, Alikulova Muxayyo. "Oila akseologiyasi asosida maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasini modellashtirish tizimini takomillashtirish asoslari." European Journal of Interdisciplinary Research and Development 13 (2023): 14-17.
17. Sherovna, Alikulova Muxayyo. "AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING OILAGA NISBATAN MAJMUAVIY BILIMLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI." PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI 1.2 (2024): 236-238.
18. Sherovna, Alikulova Muxayyo. "MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI RIVOJLANISHIDA O'YINNING ROLI." Научный Фокус 1.12 (2024): 154-157.
19. Sherovna, Alikulova Muxayyo. "MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA'LIM BERISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV." Научный Фокус 1.12 (2024): 149-153.
20. Alikulova, Muhayyo, and Shamsiddinova Gulida Zahridin Qizi. "MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA RIVOJLANTIRUVCHI MUHITNI YARATISH." Ta'lim fidoyilari 17.4 (2022): 403-408



POLAND

CURRENT APPROACHES AND NEW RESEARCH IN MODERN SCIENCES

International scientific-online conference



POLAND

21. Alikulova, Muxayyo Sherovna. "SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM BOLA IMKONIYATLARI POYDEVORIDIR." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 1.9 (2021): 459-464.